IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341
https://wordlyknowledge.uz
IMPACT FACTOR(SJIF) : 3,934

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

INTERNET VA UNING TA'LIM VOSITASI SIFATIDAGI ROLI TO`G`RISIDA

Berdiyeva Zulfiya Muxiddinovna

Buxoro muxandislik-texnologiya instituti katta o‘qituvchisi

Shaxsning bolalikdan katta hayotga o‘tishi bir-biriga qarama qarshi bo‘lgan sotsial jarayonlarga bog‘liq bo‘ladi. Bu qarama qarshiliklar jarayoni XXI asrda yanada murakkab tus oldi. Sanoat revolyutsiyasi kapitalistik tizimni vujudga keltirgan bo‘lsa, axborot texnologiyalari revolyutsiyasi axborotlashgan jamiyatning shaklllanishiga turki berdi. Yil davomida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari xajmining 50 % dan oshganini bugungi kun talablariga javob beradigan ijobiy tendensiya sifatida baholash lozim. Bu ko‘rsatkich zamonaviy jamiyatda avvalo mobil uyali aloqa va Internet tarmog‘i xizmatlaridan foydalanadigan abonentlar sonining o‘sishi hisobodan ta’minlanib kelmoqda. Bunda hisobot yilida aholi uchun internet xizmatlaridan foydalanish ta’riflarini 22 % ga kamaytirish bo‘yicha ko‘rilgan chora tadbirlar muhim ahamiyat kasb etdi. Hozirgi kunda mamlakatimiz aholisining 8 millionga yaqini Internet tarmog‘idan faol foydalanmoqda”. Ko‘rib turganimizdek mamlakatimizda ham butun dunyoda kechgani kabi axborotlashish jarayoni yuqori suratda jadallashib bormoqda. Jamiyat sotsial strukturasining barcha yo‘nalishlarida kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish va unda internet tarmog‘ining paydo bo‘lishi, ekspert mutaxassislar kutganidek, globallashuv jarayonlarini yanada jadallashtirib yubordi. Internetda bir tizimga solingan va tartiblashgan sotsial tarmoq jarayonlari esa M. Kastels ta’kidlaganidek, jamiyatni to‘liq ma’noda tarmoqqa birlashishga olib kelmoqda. Internetdan foydalanish jarayonini ilmiy tahlil qilinadigan bo‘lsa, u ikki xil holatni yuzaga keltiradi. Bu, birinchidan, konstruktiv (ijobiy) va ikkinchidan destruktiv (salbiy). Zamonaviy jamiyat nafaqat demokratlashib bormoqda, balki uning sotsial infrastrukturasi ham tubdan murakkablashib ketdi. Fuqarolik jamiyatini qurish uchun bo‘layotgan jarayonlarda konstruktiv internet tarmog‘i tashkilot, idora, o‘zini o‘zi boshqaruv organlarini o‘zaro aloqa munabatlari tezlashtirib beradi. Shuningdek, kommunikatsion texnologiyalarning taraqqiy etishi destruktiv kayfiyatni yuzaga kelishiga ham sabab bo‘la boshladi. Inson intellektual salohiyatining oshishi, bandlik, uy-joy, sotsial infratuzilma kabi masalalarning doimo etarlicha hal etish imkoniyatining etishmasligi destruktiv tarmoq tizimini kelib chiqishiga sabab bo‘ladi. Masalan, 2011 yil avgust oyida London ko‘chalarida o‘smir yoshlar tomonidan tashkillashtirilgan tartibsizliklar, asosan “internet tarmog‘i” orqali boshqarilgan. Shu jumladan Misr, Tunis, Suriya, Liviya kabi arab davlatlaridagi destruktiv jarayonlar ham aynan ushbu tarmoq ostida yuzaga keldi. XXI asr axborot asri bo‘lish bilan birga, inson ongi va tafakkurini o‘zga g‘oyalar bilan zabt etish asri ekanligi ham aniq bo‘lib boryapti. Ma’lumki, axborot xurujining asosiy nishoni, ob’ekti yoshlar hisoblanadi. Ularning ko‘lami esa yildan-yilga sezilarli darajada oshib borishi mutaxassislar tomonidan ko‘p e’tirof etilayotir. Agar ilgari axborot xuruji asosan talaba yoshlarga qaratilgan bo‘lsa, endilikda maktab o‘quvchilari ham uning domiga tushib qolmoqda. Bu, ayniqsa, shahar maktablarida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Axborot xurujini tashkil etuvchi va tarqatuvchi asosiy maydon – bu internet tarmog‘i ekanligi bugun hech kimga sir emas. Tabiiyki, yoshlar katta avlodga nisbatan internet tarmog‘ining eng ko‘p foydalanuvchi qatlamidir. Zamonaviy jamiyatda esa asosiy tarmoq hisoblangan ushbu vositadan voz kechish yoki uni umuman inkor etish mumkin emas. Yoshlar turli reklamalar va, ayniqsa, bir-birlariga bevosita ta’sir o‘tkazish natijasida internet

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

tarmog‘idan berilayotgan kundalik axborotlarga katta ehtiyoj sezmoqdalar. Kutubxona hamda kitobxonlikka nisbatan bir necha marta arzon va qulay bo‘lgan internet tarmog‘i ular uchun axborotlar bilan ishlashning eng yaxshi makoni sanaladi. Ammo davomiy axborotlar bilan ishlash oqibatida, foydalanuvchi o‘zi sezmagan holda axborot xurujiga tushib boradi. Sababi oddiy, ya’ni axborot iste’molchisi bo‘lgan har bir foydalanuvchida axborot bilan ishlash ko‘nikmasi maxsus shakllantirilmagan. Rivojlangan mamlakatlarda internet tarmog‘iga maxsus yo‘naltirilgan axborot vositalarini tarqatish hamda unda berilayotgan ma’lumotlarning haqqoniyligini tekshirib borish uchun maxsus internet-provayder kompaniyalari hamda markazlari tashkil etilgan. Bu markazlar nafaqat davlat miqyosida, balki ma’lum bir soha hamda ixtisosliklar doirasida maxsus ishlab chiqiladi. Internet tarmog‘iga ketadigan ko‘p axborot vositalari mashhur teleradiokompaniyalar yoki OAV nomi orqali tarqatiladi. Negaki, televideniye va gazeta-jurnallarda keng yoritish imkoniyati bo‘lmagan turli ma’lumotlarni katta hajmdagi axborot sifatida internetda bemalol va istagancha talqin qilish mumkin. Shu sababli ham bugun internet tarmog‘ida BBS, CNN, Times kabi internet saytlari hammabop bo‘lib qolganligini e’tirof etish mumkin. Bu saytlarda mavjud axborotlar dunyoning barcha xalqlari tushunadigan asosiy tillarda deyarli har kuni, har soat va daqiqalarda tarqaladi yoki yangilanib turadi. Internetning kuniga 24 soat davomida to‘xtovsiz ishlashi va uni to‘liqligicha qo‘lga olishning iloji yo‘qligi inobatga olinib, ko‘plab davlatlarda axborotlar bilan ishlashda belgilangan qonunchilik doirasida ko‘nikmalar shakllantiruvchi o‘quv markazlari tashkil etilgan. Bizningcha, universitet va talabalar uylarida internet markazlari faoliyatini amaliy jihatdan rivojlantirishda o‘quv markazlari tashkil etish lozim. Axborot xurujiga qarshi talabalarga biror-bir amaliy yordam ko‘rsatadigan qo‘llanma va kitoblar yetishmayapti. Talabalar internet axborot xurujiga qarshi o‘zlarida hali fuqarolik pozitsiyasini to‘liq shakllantirish imkoniga ega emaslar. Mashhur iqtisodchi, xalqaro Nobel mukofoti sohibi, professor F.Xayek o‘z mulohazalarida shunday deydi: “Haqiqat, bir tomondan, bizning zamonaviy fanimiz qonunlari asosida o‘z isbotini topmaydi yoki konstruktivizm metodologiyasi talablariga ham asoslanmaydi, lekin shu bilan birgalikda, bizda o‘zimizning ko‘plab hozirgi ilmiy taxminlarimiz oxir-oqibatda xato chiqib qolishi uchun ham asos mavjud. Agar har qanday ta’limot bizga katta yutuqlar olib kelgan taqdirda ham, biz unga qanchalik ishonmaylik, bu ilgari odimlash uchun jiddiy mazmun kasb etganda ham, mohiyatiga ko‘ra xuddi avvalgilari singari anglashilmovchilikday bo‘lib qolaveradi”.

Bozor iqtisodiyoti munosabatlari qaror topishi sharoitida xalq ta’limi xizmatlari marketingini o‘rganish eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, bu sohada aynan ta’lim muassasasining mahsuloti sifatida nimani olish zarurligi muhim masala hisoblanadi. Bozor munosabatlari ta’lim sohasida pullik xizmatlarning paydo bo‘lishi, o‘quv yurtlarida ham o‘zaro raqobat muhitini yaratish va ta’lim muassasalarining o‘z-o‘zini boshqarish tizimini takomillashtirishni yo‘lga qo‘yishni taqozo etmoqda. Buning uchun taklif etilayotgan xizmatlarni sotib oluvchilar, ya’ni yoshlarning talabiga javob beradigan ta’limning yuqori darajasida bo‘lishini ta’minlashga erishish lozim. Shu maqsadda, biz respublikamizda ta’lim tizimi uchun o‘ta zarur bo‘lgan omilni keng jamoatchilik orasida targ‘ib etish masalasini ilgari surmoqchimiz. Shu ma’noda, ayrim pedagogika yo‘nalishidagi oliy o‘quv yurtlari bugungi kunda katta tajribaga ega bo‘lgani, o‘qitish tizimi namunali yo‘lga qo‘yilgani bilan undagi ilmiy potensial talab darajasida yoki tadqiqot olib borayotgan ilmiy xodimlarning ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lmasligi mumkin. Bu sifatlar esa quyidagi me’yorlar bilan belgilanadi:

- ta’lim muassasasi kutubxonasining hajmi (kitoblar miqdori, uning tarixiy va zamonaviy holati, zamonaviy axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter tizimi va boshqalar);

VOLUME 7, ISSUE 1, 2023 SPECIAL ISSUE

- maktablarda metod kabinetlari, oliy o‘quv yurtlaridagi kafedralar, undagi professor-o‘qituvchilarning faoliyati;

- nafaqat oliy o‘quv yurti, balki fakultet va kafedralarning xalqaro darajadagi aloqalari va olingan natijalari;

- internetdan foydalanadigan yoshlarning, xususan, o‘quvchi va talabalar sonining dinamik ortib borishi yoki kamayish ko‘rsatkichi hamda ularning keyingi faoliyatlarida erishadigan yutuqlari;

- xorijdan taklif etilgan malakali pedagoglar, mutaxassislar, taniqli professorlar hamda ularning oliy o‘quv yurti ilmiy rivojiga va ta’lim samaradorligini oshirishga qo‘shadigan hissasi.

Bundan ko‘rinib turibdiki, ta’lim muassasalarining faoliyat ko‘rsatishida asosiy maqsad ikkita, ya’ni, bir tomondan, shaxsning ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojini qondirish bo‘lsa, ikkinchi tomondan, iqtisodiyotning barcha sohalari uchun malakali professional kadrlar tayyorlash masalalari bilan uzviy bog‘liqdir. Shunday ekan, ta’lim xizmati marketingi bir tomondan, kadrlar tayyorlash ishini yo‘naltirib borsa, ikkinchi tomondan, yoshlarning axborotlarni qabul qilish va tahlil etish masalasiga ham mas’ul sanaladi. So‘z oxirida shuni aytib o‘tish lozimki, bu har birimiz uchun foydadan xoli bo‘lmaydi, zero birinchi prezidentimiz o‘zining “Yuksak ma’naviyat- engilmas kuch” asarida ta’kidlaganlaridek, internetni biz do‘konga o‘xshatishimiz mumkin, u erda hamma narsani topa olamiz. U erdan har bir inson o‘ziga kerakli narsalarni oladi. Agar biz ham internetda kerakli narsalarni olishni o‘rgana olsak bizning yuksak ma’naviyatli yoshlarimiz ongiga hech qanday hurujlar ta’sir eta olmaydi.

Adabiyotlar

Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. Анализ зарубежного опыта. - М. : “Знание”, 2010.

Трайнёв В.А., Трайнёв И.В. Информационные коммуникационные педагогические технологии. Учебное пособие. - М.: 2008.

3. АТОЕВ Э. Х., КУРБАНОВ М. Т. Педагого-психологические аспекти развития дидактического тестирования //Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2014. – 2014. – С. 255-257.

4. Атоев Э. Х., Бозорова У. Р. ХИМИЧЕСКИЙ ЭКСПЕРИМЕНТ-ОДИН ИЗ ВАЖНЫХ ЭТАПОВ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА ОБУЧЕНИЯ //Современная наука: проблемы и пути их решения. – 2015. – С. 81-83.

5. Савриев Ш. М., Атоев Э. Х. РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЯ КОМПЬЮТЕРНЫХ ДИДАКТИЧЕСКИХ ТЕСТОВ В УЧЕБНЫЙ ПРОЦЕСС //Научно-технический прогресс: актуальные и перспективные направления будущего. – 2015. – С. 26-28.

6. Атоев Э. Х., КУРБАНОВ М. Т. ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА КАЧЕСТВА ПРЕДМЕТНЫХ ТЕСТОВЫХ ЗАДАНИЙ-ВАЖНЫЙ АСПЕКТ ПРИ ОБУЧЕНИИ ГУМАНИТАРНЫХ НАУК //Поколение будущего: Взгляд молодых ученых-2014. – 2014. – С. 258-259.